



**“FILOLOGIK KOMPARATIVISTIKA VA
TARJIMASHUNOSLIK MASALALARI”**
mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya
2025-yil, 12-13-noyabr

**“PROBLEMS OF COMPARATIVE
PHILOLOGY AND TRANSLATION
STUDIES”**
international scientific and practical conference
November 12-13, 2025



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

ALISHER NAVOIY NOMIDAGI
TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI
UNIVERSITETI

TARJIMA NAZARIYASI VA AMALIYOTI KAFEDRASI

**“FILOLOGIK KOMPARATIVISTIKA VA
TARJIMASHUNOSLIK MASALALARI”**

mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya to‘plami

2025-yil, 12-13-noyabr

THE MINISTRY OF HIGHER EDUCATION, SCIENCE AND
INNOVATIONS OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

ALISHER NAVO‘I TASHKENT STATE UNIVERSITY
OF UZBEK LANGUAGE AND LITERATURE

THE DEPARTMENT OF “TRANSLATION THEORY AND PRACTICE”

Proceedings of the International Scientific and Practical Conference titled

**“PROBLEMS OF COMPARATIVE PHILOLOGY
AND TRANSLATION STUDIES”**

November 12-13, 2025

Tashkent – 2025

UO‘K 845.711.05

KBK 133.585.3 “Filologik komparativistika va tarjimashunoslik masalalari” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya to‘plami. – Toshkent, 2025. – 889 b.

ISBN 978-9910-8871-6-1

Mas’ul muharrir:
Shuhrat SIROJIDDINOV

akademik

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti rektori

Tahrir hay’ati:

Nozliya Normurodova (O‘zbekiston), Zuhridin Isomiddinov (O‘zbekiston), Elizabetta Ragagnin (Italiya), Gabriela Shtoecli (Shveytsariya), Qosimboy Mamurov (O‘zbekiston), Sayed Mohamed Ahmad Korayem (Misr), Uzoq Jo‘raqulov (O‘zbekiston), Gulnoz Xalliyeva (O‘zbekiston), Yurgen Yakob Beker (Germaniya), Kemal Yavuz Ataman (Turkiya), Xurram Raximov (O‘zbekiston), Natalya Filimonova (Rossiya), Nedim Bakirci (Turkiya), Farhad Rahimi (Eron), Xayrulla Hamidov (O‘zbekiston), Elmira Adilbekova (Qozog‘iston), Sag‘inbek O‘rinboev (Qirg‘iziston), Zulxumor Xolmanova (O‘zbekiston), Mahmadiyor Asadov (O‘zbekiston), Ziyodaxon Teshaboyeva (O‘zbekiston), Dilnavoz Yusupova (O‘zbekiston), Islomjon Yakubov (O‘zbekiston), Nargiza Rashidova (O‘zbekiston), Sabohat Qahharova (O‘zbekiston), Hafiza Qo‘chqorova (O‘zbekiston,) Nigora Sulaymonova (O‘zbekiston), Dilafruz Muhammadiyeva (O‘zbekiston), Dostonbek Ahmadov (O‘zbekiston), Dilnoza Shonazarova (O‘zbekiston).

Mazkur xalqaro konferensiya materiali filologik komparativistika va tarjimashunoslikning dolzarb nazariy hamda amaliy masalalarini zamonaviy ilmiy yondashuvlar asosida yoritishga bag‘ishlanadi. To‘plamda turli milliy adabiyotlar, tillar va madaniyatlar o‘rtasidagi o‘zaro ta’sir, adabiyotlararo aloqalar, qiyosiy-tipologik va qiyosiy-genetik tadqiqotlar, badiiy va maxsus matnlarni tarjima qilish muammolari, tarjima strategiyalari va ekvivalentlik masalalari tahlil qilinadi. Shuningdek, konferensiya materiallarida tarjima nazariyasining zamonaviy konsepsiyalari, tarjimon kompetensiyasini shakllantirish, tarjimoni o‘qitish metodikasi, madaniyatlararo kommunikatsiya hamda globallashuv sharoitida tarjimaning ijtimoiy-madaniy ahamiyati kabi masalalar keng yoritiladi. Ilmiy maqolalar filologik komparativistika va tarjimashunoslik sohalarida faoliyat yuritayotgan olimlar, tadqiqotchilar, doktorantlar, magistrantlar hamda talabalar uchun mo‘ljallangan bo‘lib, fanlararo integratsiyani kuchaytirishga hamda nazariya va amaliyot uyg‘unligini ta’minlashga xizmat qiladi.

Mualliflar qarashi va asarlar nomlaridagi imlo tahririyat nuqtayi nazaridan farqlanishi mumkin.

To‘plam Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti Ilmiy-texnik kengashining 2025-yil 17-dekabrda 6-sonli yig‘ilish qaroriga asosan nashrga tavsiya etilgan.

UO‘K 845.711.05

KBK 133.585.3 Proceedings of the International Scientific-Practical Conference on the topic “Problems of comparative philology and translation studies”. – Tashkent, 2025. – 889 p.

ISBN 978-9910-8871-6-1

Editor-in-Chief:

Shuhrat SIROJIDDINOV

Academician

Rector of Alisher Navo'i Tashkent State University of Uzbek Language and Literature

Editorial Board:

Nozliya Normurodova (Uzbekiston), Zuhridin Isomiddinov (Uzbekiston), Elizabetta Ragagnin (Italy), Gabriela Stöckli (Switzerland), Qosimboy Mamurov (Uzbekiston), Sayed Mohamed Ahmad Korayem (Egypt), Uzok Djoraqulov (Uzbekiston), Gulnoz Khallieva (Uzbekiston), Jürgen Yakob Beker (Germany), Kemal Yavuz Ataman (Turkiye), Khurram Rakhimov (Uzbekiston), Natalya Filimonova (Russia), Nedim Bakirci (Turkiye), Farhad Rahimi (Iran), Khayrulla Hamidov (Uzbekiston), Elmira Adilbekova (Kazakhstan), Sag‘inbek O‘rinboev (Kyrgyzstan), Zulxumor Xolmanova (Uzbekiston), Mahmadiyor Asadov (Uzbekiston), Ziyodakhon Teshaboyeva (Uzbekiston), Dilnavoz Yusupova (Uzbekiston), Islomjon Yakubov (Uzbekiston), Nargiza Rashidova (Uzbekiston), Sabohat Qahharova (Uzbekiston), Hafiza Qo‘chqorova (Uzbekiston,) Nigora Sulaymonova (Uzbekiston), Dilafruz Muhammadiyeva (Uzbekiston), Dostonbek Akhmadov (Uzbekiston), Dilnoza Shonazarova (Uzbekiston).

This international conference articles are dedicated to illuminating the current theoretical and practical issues in philological comparativistics and translation studies based on the modern scientific approaches. The collection analyzes of mutual influences between different national literatures, languages and cultures; interliterary connections; comparative-typological and comparative-genetic studies; the issues of translating literary and specialized texts; translation strategies and problems of equivalence. Furthermore, the conference materials extensively cover the topics such as: contemporary concepts in translation theory, the formation of a translator competence, methodologies for teaching translation, intercultural communication and socio-cultural significance of translation in the context of globalization. The given scientific articles are intended to scientists, researchers, doctoral students, master’s students and undergraduate students who actively working in the fields of philological comparativistics and translation studies and they serve to strengthen interdisciplinary integration as well as to ensure the harmony between theory and practice.

The views expressed in the articles do not necessarily reflect those of the editorial board.

The publication was recommended by the Scientific and Technical Council of Alisher Navo'i Tashkent State University of Uzbek Language and Literature on December 17, 2025.

“BOBURNOMA”DA ANTROPONIMLARNING ETIMOLOGIK O‘ZIGA XOSLIGI

Dildora Kenjayeva,

ToshDO‘TAU o‘qituvchisi

DOI: 10.52773/tsuull.conf.2025.12.11/JLQM8782

Annotatsiya. Maqolada “Boburnoma”dagi antroponimlarning etimologik tahlili muallif izohi orqali keltirilgan. Unda antroponimlarning etimologik tafsilotlari izohlanadi. Kishi ismlarining aynan ma’lum bir izoh bilan kelishi sabablari keltiriladi. Tarixiy asarlarda antroponimlarning aynan takror holda kelishi ko‘p uchraydi. Bu holatda kishilarga ularning kasbi, ijtimoiy holati, ma’lum bir faoliyatda mohirligiga qarab ismda qo‘shimcha jihatlari birga aytilgan.

Kalit so‘zlar: *toponim, antroponim, zoonim, fitonim, etimologik tahlil.*

Abstract. In the article, the etymological analysis of analyzes of antroponyms in “Boburnoma” is presented through the author’s comment. Etymological details of antroponyms are explained in it. The reasons why the names of people come with a specific explanation are given. In historical works, antroponyms are often repeated. In this case, people are given additional aspects in the name, depending on their profession, social status, skill in a certain activity.

Keywords: *toponym, anthroponym, zoonym and phtonym, etymological analysis.*

“Boburnoma” XV asrning oxiri XVI asrning boshlarida O‘rta Osiyo, Afg‘oniston va Hindiston tarixi, geografiyasi va etnografiyasiga doir qimmatli ma’lumotlar jamlanmasi hisoblanadi. Asrlar davomida tarixiy memuar asar sifatida shuhrat topgan. Bugungi kunda boshqa soha vakillari uchun ham tadqiqot manbai bo‘lib ulgurgan. “Boburnoma”da muallifning leksemalar, antroponimlar, toponimlar, tibbiyotga oid so‘zlar, zoonimlar, etnonimlar, tabiat, gidrometeorologiya sohasiga oid ma’lumotlar va so‘zlarning etimologik kelib chiqishi haqidagi qarashlari ham yoritilganligiga guvoh bo‘lamiz. Asar matnida Darmiyon, Olachaxon, Kark, Asad kabi antroponimlari, Qarshi, Kashmir, Lamg‘anot, Hotiypul, Balda‘i mahfuza, Ko‘hi Safid, Hodarvesh, Seyoron, Ko‘hi Jud, Savolik parbat (Himolay tog‘i), Shohi Kobul toponimlari, Laqlaqa, Muqatta‘, Chinnixonona kabi masjid nomlari, Kakka, Nilagov, Murg‘aki Qarshi singari zoonimlar etimologiyasi keltirilgan.

“Boburnoma”da keltirilgan ma’lumotlar xalq etimologiyasi asosida qayd etilgan bo‘lib, Boburning o‘z qarashlariga uyg‘un tasvirlab berilgan. “Boburnoma” tilida voqeliklar o‘ziga xos leksik birliklar bilan ifodalangan. Masalan, shahar nomlari bilan bir qatorda ularning mohiyat-e‘tiborini yorituvchi tasviriy ifodalarni ham qayd etgan: “*Balda‘i mahfuza (Samarqand): Hech yog‘iy qahr va g‘alaba bila munga dast topmag‘an uchun baldayi mahfuza derlar*”. “*Samarqandni mo‘g‘ul va turk ulusi Semizqand derlar*”. Bundan ko‘rinadiki, Bobur Samarqandning bog‘lari, serhosil dalalari, saxovatli odamlari serbarakot ekanini ta’kidlaydi [Yorqulov, Ma’rifat gaz. 2021].

Bobur ijodidagi tilshunoslikka oid talqinlarni kuzatishda muallifning o‘zbek adabiy tili taraqqiyotidagi o‘rnini belgilash imkoni tug‘iladi. “Boburnoma”ning S.Hasanov tomonidan, P.Shamsiyev, S.Mirzayev tomonidan, yaponiyalik Eyji Mano ilmiy-tanqidiy matni asosida tayyorlagan nashrida antroponimlar, toponimlar, etnonimlar, hayvon va o‘simlik nomlari ko‘rsatkichining nomlari kengaytirib berilgan [Холманова 2021,32].

Bobur har bir so‘zni ma’nosiga muvofiq holda qo‘llagan. O‘z davrining so‘zlashuv nutqiga xos so‘zlarning semantik imkoniyatlaridan o‘rinli foydalangan. Xalq jonli nutqidan so‘z o‘zlashtirish orqali matn mazmunini boyitgan. “Boburnoma” matnining lingvistik o‘ziga xos jihatlari mavjud:

Birinchidan, “Boburnoma” XV-XIV asrlar O‘rta Osiyo, Afg‘oniston, Hindiston tarixiy muhiti, aholisi, ijtimoiy-siyosiy, maishiy turmush tarziga oid lug‘aviy birliklarni o‘z ichiga olgan. Ikkinchidan, asarda XV-XIV asrlar eski o‘zbek adabiy tili lug‘at boyligi bilan bir qatorda Bobur faoliyati bilan bog‘liq fors-tojikcha, hincha, pushtu, urdu tillariga oid so‘zlar qo‘llangan. Uchinchidan, turkiy so‘zlarning semantik xususiyatlari aks etgan. To‘rtinchidan, eski o‘zbek adabiy

tilining leksik, fonetik, struktur-morfologik, semantik xususiyatlari namoyon bo‘ladi. Beshinchidan, muallifning turli tillarga oid so‘zlar qiyosiga oid fikrlari, so‘z etimologiyasi, imlosi, tahliliga doir mulohazalari ko‘zga tashlanadi. So‘z etimologiyasining to‘g‘ri yoritilishi xalq tarixi, madaniyati, tilning tarixiy taraqqiyot xususiyatlarini o‘rganishda ahamiyatlidir [Холманова 2021, 70-71]. “Boburnoma”dagi joy nomlaridan ko‘pchiligining ma’nosini o‘zbek va tojik tillari yordamida tushunsa bo‘ladi. “Boburnoma”ni o‘rgangan tilshunos va adabiyotshunoslar Boburning tilga bo‘lgan munosabatini baholar ekan, uning onomastik (antroponimik, toponimik, etnografik) ma’lumotlarni berish chog‘ida, u yoki bu tarzda etimologik ma’lumotlar bilan dalillash metodini hind, arab va turkiy tilshunoslikdagi an’ana va tamoyillarga bog‘lab tushuntiradilar.

Antroponimlar bilan bog‘liq etimologik ma’lumotlar. XV-XVI asrlar o‘zbek antroponimlaridagi o‘ziga xos jihatlar mavjud. Antroponimga aylangan nisba, laqab, taxalluslar atroflicha tahlil qilib berilgan. Bobur o‘zining beklari, amirlari, vazir-u vuzarolari, lashkarlari-yu, qarorgoh xizmatchilarini bir-biridan farqlash uchunmi, ismlar yoniga laqab va mansab nomlarini keltirib o‘tadi [Муминова 2021,21]. O‘z zamonasida laqab, nisba, mansab nomlari ham ijobiy, ham salbiy xususiyatlarga nisbatan qo‘llangan. Nisbatan ijobiy sifatlashda qo‘llangan.

a) shaxsning faoliyatini sifatlovchi etimologiyalar:

Olachaxon antroponimi shunday izohlanadi: “*Sulton Ahmadxon edikim, Olachaxong‘a mashhurdir. Olachaning vahji tasmiyasi muni derlarkim, qalmoq va mo‘g‘ul tili bila ulturg‘uchini “olachi” derlar. Qalmoqni necha qatla bosib, qalin kishisin qirg‘on uchun Olachi de-de kasrati iste‘mol bila Olacha bo‘lubtur*” [Бобурнома 1960,68/69]. Bobur uni “Olochixon” (O‘ldurguvchi xon) deb atagani va bu laqab xalq og‘zida Olachaxonga aylanib ketganini yozadi [Qilichev 2022,13]. Matn mazmuniga ko‘ra, Olachaxon “qattol”, “qotil” ma’nosidagi so‘zdan shakllangan. So‘zning genetik asosi qadimgi turkiy til manbalarida keltirilgan “qotil” ma’nosini ifodalovchi *ülütci* so‘ziga bog‘lanadi [Холманова 2021,158].

Shayx Abusaidning **darmiyon** laqabini olishini bayon qiladi: “*Yana Shayx Abusaidxon darmiyon edi. Bilmon, bir urushta mirzog‘a ot kelturubmudur yo mirzog‘a qasd qilg‘on g‘animni daf‘ qilbimudur, ul jihattin bu laqab bila mulaqqab bo‘lubdur*” [Бобурнома 1960,236]. Darmiyon forscha “o‘rtada, orada” manosini bildiradi. Bobur mazkur laqab bilan nomlangan shaxsni hal qiluvchi damda (g‘anim qasd qilganda yoki Husayn mirzo otsiz qolganda) oraga tushganini (“joniga ora kirganini”) ta’kidlagan [Холманова 2021,157].

Mir Murtoz “*Yana Mir Murtoz edi, hikamiyot va ma‘qulotni yaxshi bilur edi, aning uchun bu laqab bila mulaqqab bo‘lubturkim, bisyor ro‘za tutar ekandur*” [BN:240]. Murtoz badiiy manbalarda “nafsini tiyuvchi, riyozat tortib, o‘zini qiynovchi” ma’nolarida ishlatilgan. Bu nisba mazkur shaxsning asosan nafsini tiyib ro‘za amallarini bajarishdagi e’tiqodi tufayli atrofda gilarning e’tiboriga sazovor bo‘lganligi ifodasidir [Холманова 2021,158].

b) kasb-korni anglatgan so‘zning shaxs nomiga aylanishi:

Atika (izohda Abika) **baxshi** misolida ko‘rish mumkin: “*Yaramni boqqali Atika baxshi otlig‘ mo‘g‘ul jarrohini yiborubturlar. Mo‘g‘ul eli jarrohni ham baxshi der. Jarrohliqda bisyor hoziq edi. Kishining mag‘zi chiqsa, doru berur edi. Ildizdin har turluk yara bo‘lsa edi, oson muolaja qilur edi*” [Бобурнома 1960,165]. Baxshi leksemasining mo‘g‘ul tilida tabibga nisbatan qo‘llanilishini yoritib, hakim so‘zining o‘rnida uni qo‘llagan va leksemaning sinonimlari qatorini kengaytirgan.

d) iqtidorning shaxs nomiga ko‘chishi:

“*Yana Mullozodai Mullo Usmon edi. Ulug‘bek mirzo zamonida o‘n to‘rt yoshida dars aytqon uchun, Mullo Modarzod (tug‘ilishdan) derlar ekandurlar. Bisyor donishmand kishi edi*” [Бобурнома 1960,240].

e) nasl-nasabini ifodalovchi so‘z shaxs nomiga aylanishi:

“Yana Osafiy edi, vazirzoda uchun Osafiy taxallus qilubtur” [Бобурнома 1960,241]. Vazir oilasiga mansubligi uning shu taxallusni olishiga sabab bo‘lgan.

f) voqea-hodisa asosida qo‘yilgan laqabning shaxs nomiga ko‘chishi:

Kark laqabi shu shaxs bilan bog‘liq voqeaga asoslangan. “Bir ovda Maqsud otliq chuhraning otini shoxi bilan bir nayza bo‘yi tashladi. Bu jihattin **Maqsud karkka mulaqqab bo‘ldi**” [Бобурнома 1960,345]. Kark ovida karkni bo‘ysundirganligi uning shu laqab bilan nisbatlanishiga sabab bo‘lgan. Sulton Mahmud G‘oziyga “**g‘oziy**” (islom dinida bo‘lmaganlar bilan urush qilib, g‘alaba qozongan [Исхоқов 2008,226]) nisbasi berilishi keltiriladi: “Ikki qatla Badaxshonning janub jonibi Kofiristong‘a borib g‘azot qildi. Bu jihattin farominining tug‘rosida Sulton Mahmud g‘oziy bitirlar edi” [Бобурнома 1960,82]. Kanva jangi g‘alabasidan so‘ng Bobur ham o‘zini g‘oziy hisoblagan. “Fath farmoni”da u “Zahiriddin Muhammad Bobur G‘oziy” deb qayt etgan [Бобурнома 1960,387].

g) jonli nutqdagi muayyan so‘zning ifoda shakli shaxs nomiga ko‘chishi:

Asad so‘zining hindistonliklar nutqidagi talaffuzi asosida **Hast** antroponimiga aylanishi kuzatiladi. “Suhon suyining navohisidag‘i el va ulusning hokimining oti Malik hast edi, asli oti Asaddur. Hindustoniylar mundoq harakatlarni gohi sokin o‘qurlar, nechukkim, “xabar”ni “xabr” derlar, “asad”ni “asd” dertublar, bora-bora “hast” bo‘lubdur” [BN:289]. Bu hindistonliklarning unli tovushni ifodalovchi harakatlarni talaffuz qilmasliklarini tasdiqlaydi. Bu esa antroponimning yangicha ifodasini yuzaga keltiradi.

XV-XVI asrlar o‘zbek antroponimlarida arab tiliga oid diniy, ilohiy tuhunchalarni ifodalovchi, Alloh sifatleri bilan bog‘liq ismlar ham ko‘p uchraydi. Aynan Bobur ham o‘z mulozimlarini farqlash uchun ularni ma‘lum so‘z yoki xususiyati bilan nomlagan. Chunki ismlarda adashlik ko‘p edi. Antroponimlarga qo‘yilgan nisba, laqab, taxalluslarni quyidagicha izohlash mumkin: 1) bir xil ismdagi shaxslarni farqlash; 2) shaxsning jismoniy imkoniyat, tashqi ko‘rinishini tasvirlash; 3) shaxsning fe‘l-atvori, karakter- xususiyatlarini yoritish kabilar.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Бобур Заҳириддин Муҳаммад. Бобурнома. Тошкент: ФА нашр, 1960. Бобур Заҳириддин Муҳаммад. Бобурнома. Тошкент: Ўқитувчи, 2008.
2. Исхоқов Ф. «Бобурнома» учун қисқача изоҳли луғат. -Андижон. 2008.
3. Jo‘raboieva S. «Boburnoma» asarida toponimlarning qo‘llanilishi. Молодой ученый журнал. №30. –Москва, 2021.
4. Kenjayeva D. “Boburnoma”dagi zoonimlarning etimologik xususiyatlari. –Toshkent,2023. Magistrlik diss.
5. Муминова М. “Бобурнома” матни таржималарида антропоним ва топонимларнинг лингвокультурологик хусусиятлари (“Бобурнома” матнининг инглизча таржималари мисолида). – Филол. фан. бўйича фалсафа доктори (PhD) дисс. автореф. –Андижон, 2021.
6. Нурмонов А. Танланган асарлар. 2-жилд. –Тошкент. 2012.
7. Qilichev B. “Onomastika” fanidan mustaqil ta’lim uchun materiallar, metodik ko‘rsatma. – Vuxoro, 2022.
8. Қораев С. Топонимика жой номлари ҳақидаги фан. –Тошкент, 1980.
9. Ражабов Ф. Заҳириддин Муҳаммад Бобур асарларидаги ономастик бирликларнинг лексик-семантик ва лингвопоэтик хусусиятлари. –Қарши, 2022. Филол.фан.бўйича фалсафа доктори (PhD) дис. Автореф.
10. Холманова З. «Бобурнома» - тил қомуси. –Тошкент: Akademnashr, 2021.
11. Yorqulov A. Samarqand – “Quyosh shahri” degani emasmi? // Ma’rifat gazetasi. 25.08.2021.
12. Йўлдошев Б. Ўзбек ономастикаси масалалари (услугий қўлланма). – Самарқанд, 2011.

13. Prasad, K., Aladini, A., Normurodova, N.Z. et al. Take language assessment easy: the mediator impacts of self-assessment, test-taking skills in predicting student evaluation apprehension, foreign language learning self-esteem, and language achievement in online classes. *Lang Test Asia* 13, 34 (2023). <https://doi.org/10.1186/s40468-023-00246-0>
14. Шукуров А. Нур устига ёғсин нур ёхуд 4800 йил аввалги бир сўзимиз ҳақида дунёда бораётган баҳс тўғрисида битик (эссе). – Тошкент, 2013.
15. Muhammadiyeva, D. (2025). PROBLEMS RELATED TO THE TRANSLATIONS OF “BOBURNOMA” IN TURKIC LANGUAGES. *Türkoloji*(121), 65-84. <https://doi.org/10.59358/ayt.1619264>
16. Creating a Database of Uzbek Dictionaries Related to the Text of "Boburnoma". (2024). *American Journal of Language, Literacy and Learning in STEM Education* (2993-2769), 2(12), 71-76. <https://grnjournal.us/index.php/STEM/article/view/6306>
17. Муҳаммадиева, Д. (2021). Бобурнома” туркча таржимасида паремияларнинг қиёсий тадқиқи. Фил. фан. бўйича ёзилган дисс. автореф. Тошкент.
18. Qahharova S. Semantic analysis of the verb" walk //O ‘zbekiston milliy universiteti xabarleri, 2022,[1/3 ISSN 2181-7324
19. Asadov, M. (2025). The concept of individualism and absurdity in Camus’ the stranger. *American Journal of Philological Sciences*, 5(03), 119-123.
20. Qodirovna, T. Z. (2019). Scientific and Theoretical Study of “Baburname” and Its ‘translations into the World Languages. *Journal of Critical Reviews*, 7(3), 2020.
21. Abdulloeva, K. (2021). INGLIZ HAMDA OZBEK ERTAKLARINING LINGVOMADANIY HAMDA STILISTIK TAHLILI. *Scientific progress*, 2(5), 377-381.
22. Khurramov, A. INTERPRETATION OF BABUR'S IMAGE IN HISTORICAL STORIES.
23. Xurramov, O. “BOBURIYNOMA” DA TARIXIY SHAXSLAR OBRAZINING BADIY TALQINI.
24. Mahmadiyor Asadov. (2025). A Brief Review Of Vilen Komissarov’s Theory Of Equivalence. *International Journal Of Literature And Languages*, 5(12), 86–89.
25. Izzatillayev P. “Muhokamat ul-lug ‘atayn” Eron navoiyshunoslari talqinida //Oltin bitiglar–Golden Scripts. – 2024. – T. 1. – №. 1.
26. Mansurov S. The art of poetry in" Gulshani dilafgor" //ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal. – 2021. – T. 11. – №. 10. – С. 1753-1756.

MUNDARIJA		
I SHO‘BA. TARJIMASHUNOSLIKNING DOLZARB MASALALARI		
1.	Zuhriddin ISOMIDDINOV. Bizdagi tarjima muammolari	5
2.	Uzoq JO‘RAQULOV. O‘zbek tarjimachiligi istiqbollari	9
3.	Xurram RAHIMOV. Alisher Navoiyning “Munojot” asari tarixi, tabdili va tarjimalari xususida	14
4.	Олимджон КАСИМОВ, Мартаба СУЛТОНЗОДА. Некоторые лингвистические особенности перевода лексем «Шахнаме» на русский язык	17
5.	Ne‘matilla OTAJONOV. Eiji Mano – boburshunos olim	22
6.	Rukhsana IFTIKHAR. Beautification of Mughal women	26
7.	Наталья ФИЛИМОНОВА. Возможности перевода при работе иностранных учащихся с художественным текстом: начальный этап изучения русского языка	30
8.	Kosimboy MAMUROV, Nargiza TILAKOVA Functional syntax and mystical semantics: correlating syntaxemes with sufi concepts in Alisher Navai’s Uzbek and English ghazals	34
9.	Xayrulla HAMIDOV. Muslimbek Yo‘ldoshevning tarjimonlik mahorati	38
10.	Ирода СИДДИКОВА. К вопросу взаимосвязи психолингвистики и художественного перевода	43
11.	Xayrulla HAMIDOV, Zulfizarxon QORAXO‘JAYEVA. Nafisiyning “Jannatning yarim yo‘lida” asaridagi personaj portretining tarjimada berilishi	46
12.	Абдумажид МАДРАИМОВ, Аскарый МАДРАИМОВ. Вопросы перевода научного наследия Захириддина Мухаммада Бабура и традиция перевода в библиотеке Акбара в XVI веке	51
13.	Supriya BANERJEE, Iroda UMAROVA Reimagining classics: Tagore, translation and the global reader	54
14.	Ziyodaxon TESHABOYEVA. “Boburnoma”da milliy-madaniy xususiyatli til birliklar va ularning inglizcha tarjimalari	58
15.	Zulhumor MIRZAEVA. Politics under the mask of poetics: Chulpon’s translations in the 1920s-1930s	62
16.	Abdumajid MAMADALIYEV. Badiiy matn tarjimasida milliy koloritni ifodalash muammosi	72
17.	Muhammadjon ABDUVALIYEV. Sinxron tarjimashunoslikning zamonaviy masalalari	74
18.	Мұратбек БАҒИЛА, Кәмшат АЙМАҒАМБЕТОВА. Қазақ тілін оқыту әдістемесінің жаңа парадигмалары	80
19.	Shermurod SUBHON. Ijodiy kengashlarda	84

20.	Shermurod SUBHON. Kitobxon oldida mas’uliyat	97
21.	Murtazo SAYDUMAROV, Mahmudaxon SAYDUMAROVA. O‘zbek adabiyotining ilk romani tarjimalarida lingvomadaniy xususiyatlar va semantik o‘zgarishlar	100
22.	Mahmadiyor ASADOV. Tarjima – qiyosiy adabiyotshunoslikning tadqiqot obyekti	107
23.	Toshtemir ALIMOV. Gender as a linguistic and cultural parameter in literary translation	113
24.	Tozagul MATYOQUBOVA. Ilk hasbi hol qasida va uning o‘zbek tarjimoni	116
25.	Dilafruz MUHAMMADIYEVA. “Boburnoma”ning turkcha tarjimasi bilan bog‘liq muammolar	120
26.	Umida TURAeva. Some challenges of translating forensic terminology between English and Uzbek	125
27.	Елена ПАНОВА. Мифопоэтическая традиция и проблемы перевода и функционирования онимов в волшебной повести «Алиса в стране чудес» Л. Кэрролла	128
28.	Gulnoz MAMARASULOVA. Siyosiy matn tarjimasining lingvokulturologik jihatlari	137
29.	Эльнора БАГАВОВА. Эволюция переводческих теорий: от традиционных подходов к современным тенденциям	140
30.	Dilfuza KHUDAIBERDIEVA. Translation studies: traditional and modern approaches	144
31.	Gulnoz MAMARASULOVA, Ruxshona CHO‘LIYEVA. Diplomatiik matnlarning tarjimada ifodalanishi	148
32.	Dilshod AMIRQULOV. Tarjimashunoslikda til tipologiyasi asosida komparativ yondashuv	151
33.	Tozagul NASRULLAEVA. Literary translation as interpretation: on the basis of Dreiser’s literary works	154
34.	Мохира ЭШКУВАТОВА, Достонбек АХМАДОВ. Роль лингвострановедческого компонента в обучении переводу	156
35.	Islom TURDIYEV. Ingliz va o‘zbek tillaridagi ayrim ish yuritish terminlarining tarjima talqinidagi muammolari	160
36.	Фотима УМИРЗАКОВА. Проблемы традиционных и современных подходов в немецком переводе	163
37.	Shohsanam BEKMURATOVA. Maqollar tarjimasida tarjimonlarining lingvomadaniy yondashuvlari	166
II SHO‘BA. QIYOSIY TILSHUNOSLIK MASALALARI		
38.	Sayed Mohamed Ahmad KORAYEM. Principles for developing comparative linguistic studies	171
39.	Nedim BAKIRCI. Milli kimlik inʃasinda halk biliminin iʃlevi	183
40.	Farhad RAHIMI. Beʃ, bel, bilek, elik/ el ve ilik kelimelerinin etimolojik ve anlamsal baĝlantilari	190

41.	Farhad RAHIMI. Nezirali'nin Çağatay türkçesi sözlüğünün yanlışları üzerine iii	196
42.	Сырга ОРУНБАЕВА, Долон МАЛДЫБАЕВ, Сагынбек ОРУНБАЕВ, Минаим МЫРЗАКМАТОВА, Жумакадыр КАРАМОЛДОЕВ. Горы и их лингвистические особенности: типология высот и культурных различий	215
43.	Saodat MUHAMMEDOVA, Kosimboy MAMUROV. Reforming the Uzbek latin alphabet: balancing phonology and global usability	221
44.	Jamoliddin YOQUBOV. O‘zbek va fransuz tillarida “ona” leksemasi ifodalanishining lingvomadaniy xususiyatlari	223
45.	Valijon VOSITOV. Inkor kategoriyasi lingvistik voqelik sifatida	228
46.	Khushnuda SAMIGOVA. Identifying the semantic component of affectionate form	230
47.	Nargiza DOSBAYEVA. Specific features of intercultural interaction in the course of teaching foreign languages	234
48.	Наргиза РАШИДОВА. Арабские заимствования в узбекском языке	237
49.	Ulugbek KARIMOV. Evolution of the cyborg in 21st-century science fiction	240
50.	Kamola ABDULLOEVA. Diskursiv shaxsning grafik vositalar orqali aks etishi	243
51.	Malohat BADALBAYEVA. The special lexicon of emergency situations in global linguistics	246
52.	Nargiza MIRZALIYEVA. Abdulla Qahhor va Ernest Xeminguey hikoyalari qahramonlarining o‘ziga xos xususiyatlari: badiiy tahlil va qiyosiy yondashuv	250
53.	Azizjon SHARIPOV. Yozma manbalarda Hirotning tarixiy toponimikasiga doir ma’lumotlar: Shohrux Mirzo davri	253
54.	Марина ИСКАКОВА. Тюркоязычный мир от древности	263
55.	Nargiza YUSUPOVA. The impact of artificial intelligence on comparative philology and translation studies	268
56.	Feruzaxon KARIMOVA. Aksiolingvistikada ma’naviy qadriyatlar talqini	272
57.	Zebiniso BEKMURADOVA. O‘zbek va fransuz maqollaridagi xiazmlarning stilistik, semantik va lingvokulturologik tahlili	276
58.	Sabohat QAHHAROVA. Yassaviy hikmatlarining lingvokulturologik tahlili	279
59.	Dildora KENJAYEVA. “Boburnoma”da antroponimlarning etimologik o‘ziga xosligi	283
60.	Gulchexra IBRAGIMOVA. Ingliz tilida abbreviatura va akronimlarning lingvistik tahlili	287
61.	Asror YUSUPOV. Lug‘at maqolasi strukturasi nazariyasining rivojlanishi	289